



Taqiqot.uz



АНДУМАН | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022  
ДЕКАБР  
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
8-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-8**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

<b>1. Allayarova Naima Bahrom qizi, Siydabullayeva Sayyora Raximbergan qizi, Olloyorova Guliyor Bahromovna</b>	
CHO'L PONNING "KECHA VA KUNDUZ" ASARI HAQIDA MULOHAZALAR .....	7
<b>2. Eshchanova Muhabbat Xolnazarovna</b>	
ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH .....	9
<b>3. Niyazmetova Aysajan Qadambayevna, Matchanova Muxayyo Eshjanovna</b>	
XUDOYBERDI TO'XTABOYEV IJODINI O'RGANISH.....	10
<b>4. Alimova Bibisora Yunusovna</b>	
BADIIY ASAR TAHLILI. TURGENEVNING "OTALAR VA BOLALAR" ASARI TALQINIDA.....	11
<b>5. Vafoqulova Go'zal Ochilovna</b>	
ADABIYOT DARSLARIDA NODIRA LIRIKASINI O'QITISH .....	12
<b>6. Nuriddinova Dilorom Qudratovna, Kaljanova Nazira Maksetbayevna</b>	
O'ZBEK TILI DARSLARIDA MUSTAQIL FIKRLI O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA QO'LLANADIGAN USULLAR .....	15



## АДАБИЁТ

### CHO'LTONNING “KECHA VA KUNDUZ” ASARI HAQIDA MULOHAZALAR

**Allayarova Naima Bahrom qizi**  
**Siydabullayeva Sayyora Raximbergan qizi**  
Xorazm viloyati Yangibozor tumani  
1-son kasb-hunar maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari  
**Olloyorova Guliyor Bahromovna**  
Xorazm viloyati Yangibozor tumani  
25-son maktabning  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Cho'lponning “Kecha va Kunduz” asari, uning yaratilishi va undagi voqealar haqida, shuningdek darslarda ushbu asarni o'qish va tahlil qilish haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Cho'lpon, ”Kecha va Kunduz”, Zebi, Miryoqub, adabiyot, asar, tahlil, qahramon.

Adabiyot darslari o‘quvchini O‘zbek adabiyotining buyuk va takrorlanmas asarlari bilan tanishtiribgina qolmay ularni taxlil qilishni, tushunishni, his qilishni o‘rgatadi. Bunday asarlardan biri atoqli adib Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho'lpon qalamiga mansub «Kecha va kunduz» asariga «O’tkan kunlar» asari darajasida deb baho berilgan. U o‘zbek adabiyotidagi ilk roman - diliqiga bo‘lib, ikki kitobdan iborat. Birinchi qismi «Kecha» 1933-34-yillarda Moskvada yozilgan. Dastlabki boblari 1935- yilda Toshkentdagи adabiy jurnalning 1-sonida bositgan, asar 1936-yilda to‘liq holda nashr etilgan. Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. Cho'lpon romaniga «Hamal keldi - amal keldi» maqolini epigraf qilib olgan. Romanning «Bugun» yoki «Kunduz» deb atalgan ikkinchi qismining taqdiri to‘g‘risida ma’lumot yo‘q. Holbuki «Kecha» da tasvirlangan voqealarning mantiqiga ko‘ra romanning «Kunduz» qismida Zebining Sibir surgunidan, Miryoqubning esa Qrim safaridan keyingi hayotlari tasvirlanishi lozim edi. Birinchi kitobdagи tasvir etilgan voqeа birinchi jahon urushi endigina boshlangan kezlarida O‘zbekiston viloyatlarining birida bo‘lib o‘tadi. Asardagi asosiy g‘oya mavjud tuzumni tag tomiri bilan o‘zgartirishdir va shuni takidlash joizki, adib asarda mavjud tuzumning qanchalik qoloq ekanligini takidlashga uning ustidan beg‘araz kulishga undaydi. Bu davrda o‘zbek xalqining turmush tarzini Mingboshi va uning xotinlari va aynan Zebi taqdiri bilan yanada aniqroq qilib ko‘rsatib bera oldi va o‘sha davr o‘z ichiga olgan murakkab va bir vaqtning o‘zida jirkanch boshqaruv tizimini Miryoqub va Noib to‘ra suhabatidan xam ilg‘ab olish mumkin. Cho'lpon asarlaridagi murakkablik va sirlilik va shuning bilan birga soddalik va oddiylik shunchalik uyg‘unlashganki o‘quvchi ularni faqatgina bir butun yaxlitlikda qabul qiladi xolos va aynan shu yuqori sinf o‘quvchilarining «Kecha va kunduz» asarini bor bo‘y basti bilan tushunishlarida muammolarni keltirib chiqaradi.

Asar qahramonlarining suhabatlari, babs-munozaralarining biz ko‘nikkan suhabatlardan, shunchaki kayfiy munozaralardan farqi shundaki, asardagi dialoglar adibning badiiy niyatiga aloqador bo‘lgani bois estetik yoqimli va asarning yaxlitligini ta’minlovchi badiiy unsur bo‘lib bu o‘quvchilarga badiiy asarning tub zamirida yashirin bo‘lgan ma’noni tushunishlarini qiyinlashtiradi. Badiiy asar tahlili ham badiiy asar ustida ishslash bosqichlarining eng muhimlaridan biridir. Tahlilning maqsadi, vazifasi, tarkibi va o‘ziga xos mazmuni mavjud. Biroq ularni har doim bir xilda bo‘ladi, deb tasavvur qilish to‘g‘ri emas. Har bir ijodkor, har bir asar bilan bog‘liq holda tahlil ham o‘ziga hoslik kasb etadi. Shu sababli o‘quvchilarga qahramonlarning xatti-harakatlarinigina emas, qalbi va qiyofasi, botini va zohiri, ma’naviy va moddiy mavjudiyati o‘rtasidagi muvofiqlikni tushunishlari uchun ustozlar o‘quvchilarining tafakkur tarzi, dunyoqarashi, ijtimoiy saviyasiga munosib sharqlash yo‘llarini topishlari shartdir. Buning uchun xarakter va hayot mantig‘ini jiddiy kuzatish va mohiyatini ravshan ifodalay olish zarur bo‘ladi. Zero asar tilining tarjimoni va



о‘quvchilarni qanchalik tushunishiga javobgar bu ustozdir.

«Kecha va kunduz” dagi dialoglar silsilasida qahramonlarning ichki dunyosi, aql-zakovati, fahm-farosati va axloqiy qiyofasi o‘zining barcha qirralari bilan namoyon bo‘ladi, va bu o‘qituvchiga asarning mohiyatini yanada ochib berishga xizmat qiladi. Cho‘lpon asarini o‘quvchiga tushuntirishda aynan o‘sha davr ruhiyatini anglash va xis qilish kerakdir va xususan sinf xonada erkin muloqot, bahs, munozaralar va davr ruhiyatiga mos muhit yarata bilish kerak. O‘quvchilarni asarning ruhiyatini yanada yaxshiroq tushunishlari uchun real faktlardan foydalanish, shuningdek o‘quvchilarni mavjud xolatni anglashda tarix fanidan orttirgan bilim-ko‘nikmalar va malakalaridan unumli foydalanish esa nafaqat asar g‘oyasini chuqurroq anglashga, balki o‘quvchining Cho‘lpon asarlari tarixini va asarda yoritilgan davrni ham yaxshiroq o‘rganishga undaydi. Asarni tushunish va uni yaxshiroq o‘rganish o‘quvchilarda asarning g‘oyasi va maqsadiga oid umumiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi.

Yuqori sinf o‘quvchilarining XX asr adabiyotini o‘rganishda va aynan Cho‘lpon asarlarini o‘rganishda barcha tahilliar uchun qo‘yiladigan asosiy talab –ilmiylikdir. Real nazariy asoslarga, badiiy-estetik mantiq talablariga javob bera oladigan tahlil o‘quvchining haqiqiy yordamchisi bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarga Cho‘lpon asarini to‘liq tushuntirish nafaqat Cho‘lpon asarlari balki XX asr O‘zbek adabiyoti moxiyatini, uning tub zamirida qanday ulkan g‘oyalari borligini tushuntira olsak ularning adabiyotga, xususan milliy qadriyatlarimiz, an’ana va odatlarimizga bo‘lgan chuqur hurmat asnosida tarbiyalashga ulkan hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev Qozoqboy. Adabiyot: Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik.-T: Yangi yo‘l poligraf servis, 2014.
2. Kecha va kunduz. Cho‘lpon.-Toshkent :G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017.
3. N.Karimov, S.Mamajonov, B. Nazarov, U.Normatov, O.Sharofiddinov “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi”, T-1999



## ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Eshchanova Muhabbat Xolnazarovna  
Xorazm viloyati Bog`ot tumani  
38-maktab o`qituvchisi.  
Telefon:+998992479628  
eshchanovamuhabbat1969@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili darslarida foydalanishga tavsija etiladigan interfaol metodlar va ularning mazmuni xususidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** innovatsion texnologiya, metod, texnologiya, interfaol, bayon qilish, suhbat, muammoli vaziyat.

Mustaqillik sharofati bilan respublikamizda yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayotimiz umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo`nalishlariga jadal sur`atlar bilan kirib bormoqda. “XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli barkamol shaxslarni jahon ta`lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir”. Hozirgi kunda barcha ta`lim muassasalarida o`qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta`lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to`liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo`lishini ta`minlashga ko`maklashadi. Interfaol ta`lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Ona tilini o`qitishda o`qituvchi bilan o`quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta`lim tizimining takomillashuvi bilan bog`liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o`qitish metodlari sifatida tushuntirish bayon metodi, suhbat metodi, analiz - sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta`limi darslarini tashkil etishda ko`proq qo`llanilib kelinmoqda. Bayon qilish metodi ona tili darslarida qo`llangan asosiy metodlardan biri bo`lgan. Bunda o`qituvchi bayon qilishdan oldin o`quvchilarning o`rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab olgan. Suhbat metodi savol -javob metodi deb ham yuritiladi. Suhbat metodi o`qituvchidan mavzuning xususiyatini o`zida aks ettirgan o`quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o`xshash va farqli jihatlarini ajratish, o`xshash va farqli jihatlariga qarab guruhash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo`naltirilgan savollar tuzishni, ularni o`quvchilarga izchil berib borishni talab etadi O`quvchilar o`qituvchining topshirig`i bilan mustaqil ishlarni og`zaki yoki yozma shaklda bajaradilar

Analiz-sintez metodi savod o`rgatish darslariga rustuzem maktablari va tatar o`qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ona tili ta`limi jarayoniga analiz — tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o`rganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi. . Sintez qismlarga bo`lib o`rganilgan grammatik materialni yaxshilashdir. Masalan, ot, sifat, fe'l, son kabi so`z turkumlari o`rganilayotganda ularga oid so`zlar berilib, ular ishtirokida gap tuzish, aralash berilgan so`zlardan gap tuzish, aralash berilgan gaplarni voqealar rivoji asosida tartiblashtirib matn tuzish, mazmunan tahlil qilingan rasm asosida hikoyacha tuzish kabi ishlarda sintez metodi namoyon bo`ladi

Xulosa qilib aytganda yuqoridaagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o`qituvchining beradigan savol - topshiriqlariga bog`liq. So`nggi yillar davomida ta`lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ona tili ta`limi jarayonida foydalanish bo`yicha yutuqlar qo`lga kiritilib kelinmoqda. Bu metodlardan dars jarayonida foydalanish o`quvchilar faolligini va dars samarasini oshiradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug` xalqning ishi ham ulug` va kelajagi farovon bo`ladi. T.: “O`zbekiston”, 2019.
2. Yo`ldoshev J., Yo`ldosheva F., Yo`ldosheva G. Interfaol ta`lim - sifat kafolati. -Toshkent, 2008.
3. Rafiyev A., G`ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T., “Sharq”, 2013.



## XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV IJODINI O‘RGANISH

Niyazmetova Ayshajon Qadambayevna  
Matchanova Muxayyo Eshjanovna

Xorazm viloyati Xiva tumanidagi  
25-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bolalar adabiyotining zabardast vakili, romannafis yozuvchi Xudoyberdi To‘xtaboyev hayoti ijodi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Fe’l etonchi, “Hadik”, “Tilxat”, “Ona”, “Xarakteristika”, “Barvaqt aytilgan azon”, “Domlaning uyiga o‘t ketdi”, “Maxsus topshiriq”, “Jonginam, shartningni ayt”.

Xudoyberdi To‘xtaboyev katta-yu, kichik bolalarning sevimli adibi. U hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastika janrlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘sib kelayotgan talantli adib sifatida kitobxoniga ma’lum va mashhurdir.

Xudoyberdi To‘xtaboyev 1932-yilning 17-dekabrida Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumaniga qarashli Kattatagob qishlog‘ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi ham poda boqdi, yer chopdi, paxta terdi, xullas, qishloqda bo‘ladigan hamma mehnatlarda hol-qudrat ishtirot etdi., hayot nimadan iborat ekanligini yoshligidanoq bila boshladi.

Bo‘lajak adib ikkinchi jahon urushi yillarda o‘qishni yig‘ishtirib dalada ketmon chopdi, hisobchilik qildi, mashaqqatli mehnat bilan suyagi qotdi.

Qo‘qon pedagogika bilim yurtini muvaffaqiyatlari tamomlagan Xudoyberdi To‘xtaboyev ona qishlog‘ida muallimlik qilar ekan, unda ilmga cheksiz ishtiyoq uyg‘onadi. Shuning uchun ham u o‘qituvchilikni tashlab, Toshkent davlat dorilfununiga o‘qishga kirdi. Bu yerda Alisher Novoiv, Bobur, G‘.G‘ulom, Oybek, O‘.Olimjon, A.Qahhor asarlarini sevib o‘qidi, o‘rgandi.

Universitetni tugatib, Bog‘dod tumanida o‘qituvchilik qildi. Ilmiy bo‘lim mudiri, direktorlik lavozimlarida ishlab, yoshlarni ilm-fan nurlaridan bahramand etish ishlarida faoliyat ko‘rsatdi. She’riy mashqlari vaqtli matbuot sahifalarida e’lon qilina boshladi. Bu esa bo‘lajak adibni markazga – Toshkentga ijodiy ish bilan jiddiy shug‘ullanishga chorlar edi. Shunday ham bo‘ldi. U 1958-yilda Toshkentga ko‘chib keldi. “Toshkent haqiqati” gazetasiga ishga kirdi.

“Hadik”, “Tilxat”, “Ona”, “Xarakteristika”, “Barvaqt aytilgan azon”, “Domlaning uyiga o‘t ketdi”, “Maxsus topshiriq”, “Jonginam, shartningni ayt” kabi kattalar uchun qissa va hikoyalar yozgan Xudoyberdi To‘xtaboyev bolalar uchun ham hikoyalar yarata boshladi. Uning “Birinchi daraxtim”, “Qochoqlar”, “Qizg‘anchiq”, “Dadajon, yozmang”, “Kelvordim, dada”, “Vali bilan Salim”, “Shoshqaloq”, “Yashil-yashil” singari o‘nlab hikoyalari yosh kitobxonlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Inson olamga kelibdiki, ona allasi aytilbdiki bolaga rostgo‘y bo‘lish, yolg‘on gapirmaslik masalasi qulog‘iga quyiladi. Chunki kim yolg‘onchi bo‘lsa, o‘zgalarga riyokorlik ko‘rsatsa, bir kun emas, bir kuni siri fosh bo‘ladi, yolg‘onchiligi oshkor bo‘lgach, izza bo‘lib odamlar yuziga tik boqa olmay qoladi.

Shavkat juda shoshqaloq bola, doimo shoshilganidan gap orasida yolg‘on-yashiq gapni ham qistirib yuboraveradi. Buni uning qo‘sni ayol- Komila xolaga yolg‘on gapirib qo‘yib, mana bunday izza bo‘lib qolishi misolida ham bilib olamiz.

“Kichkina rais” hikoyasining qahramoni kichkintoy o‘quvchi bola. Lekin Foziljonning xatti-harakati, intilishi, paxta dalalarini sergaklik bilan kuzatishi, fikr yuritishi raislarga xos.

Xudoyberdi To‘xtaboyevda yozuvchilikka ishtiyoq uyg‘otgan, qobiliyatining shakllanishida muhim rol o‘ynagan, asarlariga qaytarilmas rang va jilo bergen narsa hayot, vaqtli matbuot, redaktsiyadagi qaynoq ijodiy muhit va qunt, chidam bilan o‘qish, o‘rganish, o‘z ustida ishlash bo‘ladi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev uzoq yillar fel’etonchi bo‘lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o‘rgandi. Bunday shikoyatlarga sabab bo‘layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intildi. Davrdan orqada qolgan, sarqit deb atalgan illatlar botqog‘iga botgan, molu dunyoga hirs qo‘ygan shaxslar haqida talay fel’etonlar yozdi. “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi” nomli asarlari ana shu faktlarni umumlashtirish asosida yuzaga keldi, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:  
[www.talaba.su](http://www.talaba.su) sayti.



BADIY ASAR TAHLILI. TURGENEVNING “OTALAR VA BOLALAR” ASARI  
TALQINIDA

Alimova Bibisora Yunusovna  
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani 7-IDUMning  
o’zbek tili va adabiyoti o’qituvchisi  
+99891 555 70 21

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Otalar va bolalar” asaridagi salbiy va ijobiy obrazlar; ularning taqdiri, asar syujeti va kompozitsiyasi, tugun va yechim haqida mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** asar g’oyasi, asar nomi, mafkura, konflikt, obraz, syujet, komponent, nigelizm, sotsiolist, “otalar”, “bolalar”.

Rus yozuvchilari o’zlarining adabiy asarlariga turli yo’llar bilan sarlavha qo’yishadi. Ba’zilari bosh qahramonning nomini, ba’zilari asarning bosh g’oyasini sarlavhaga ko’chiradi.

Turgenevning “Otalar va bolalar” romanining nomi asar g’oyasini ifodalaydi. Unda asarning asosiy konflikti mavjud bo’lib, unda ikki komponent – oilaviy va mafkuraviy komponent yoritilgan. Yozuvchi roman qahramonlarini ikki guruhga ajratadi: “Otalar” o’tmisg’oyalari bilan yashaydigan keksa avlod vakillari va kelajakka intilayotgan “bolalar” – yoshlar. Bu ikki guruh qahramonlari bir-biriga qarama-qarshidir. Romandagi “otalar” aka-uka Kirsanovlar: Nikolay Petrovich va Pavel Petrovich. Yumshoq va xushmuomala Nekolay Petrovich qishloqda sokin oilaviy baxtdan baxramand bo’lib, xotirjam yashaydi. U she’riyatni yaxshi ko’radi va o’g’lining do’sti Bazarovning nazarida kulgili ko’rinadigan violonchel chaladi. Pavel Petrovich akasiga umuman o’xshamaydi. Bu sobiq sotsiolist to’plarda porlagan harbiy xizmatchi, qishloqda akasi bilan o’tmisni eslab yashaydi. Qishloqda yashasa-da, did bilan kiyinadi. Yosh avlod “bolalar” romanda, birinchi navbatda, do’sti Arkadiy bilan qishloqqa kelgan Yevgeniy Bazarov tomonidan tasvirlangan. Bazarov – nigelist. U faqat foydali narsaga ishonadi, qolgan hamma narsani, jumladan, she’riyatni, san’atni, sevgini, e’tiqodni inkor etadi. “Rafael bir tiyinga ham arzimaydi”, - deydi Bazarov. U faqat so’zlarni shamlarga tashlaydigan zamonaviy aristokratiyadan nafratlanadi.

Mafkuraviy qarama-qarshilik Pavel Petrovich va Bazarov o’rtasidagi tortishuvlarda aniq namoyon bo’ladi. O’sha paytda Rossiyada urfga aylangan nigelizm an’anaviy dunyoqarash bilan to’qnash keladi. Turgenevning zamonaviy tanqidi bu bahslarda liberallar (aka-uka Kirsanovlar) va inqilobiy demokratlar (Bazarov) o’rtasidagi to’qnashuvni ko’rdi. Garchi bu o’g’zaki bahslarda g’alaba Bazarovga tegishli bo’lsa-da, uning ustunligi bir necha bahslarga sabab bo’ladi. Pavel Petrovich ham odamlarning avlodlari tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlarga ishora qilib o’zining haqligini isbotlashga harakat qiladi. Bu ikki obraz ayrim xususiyatlari bilan bir-biriga o’xshaydi. Ikkalasi ham mag’rur, o’ziga ishongan, takabbur.

Oila dramasi g’oyalar to’qnashuvidan ko’ra chuqurroq va muhimroq bo’lib chiqdi. Bu ikki avlod – “Otalar” va “Bolalar” ning abadiy qarama-qarshiligidan iborat. Keksalar ham doim tajribali va ehtiyyotkorroq. Ular yoshlik ideallari bilan yashaydi, ularni yosh avlodga singdirishga harakat qiladi. Shuning uchun Pavel Petrovich o’z printsiplarini qat’iyat bilan himoya qiladi. “Bolalar” – yoshlar esa har doim “otalar”ning inertsiyasini qoralab, yangi va ilg’or narsaga intilishadi. Yaxshi hamki, “otalar” va “bolalar” o’rtasidagi qarama-qarshilik vaqtinchalik. Turgenev esa ularni ajratmaydi, balki asar nomidagi “va” birlashmasi bilan ularni bog’laydi. Asar yakunida xasta Bazarovga ota-onasi g’amxo’rlik qilishadi. Arkadiy oila qurdi. Bazarov sevgi tuyg’usini boshdan kechirgan holda, o’zining bag’ritosh va ruhsiz inson ekanligiga amin bo’ldi. “Bolalar” muqarrar ravishda “otalarga” ergashishini, ota-onalar yo’lini takrorlashini kitobxon roman so’ngida tushunib yetadi.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati:**

1. D. I. Forvizin “O’sish”
2. L. N. Tolstoy “Urush va tinchlik”
3. I. S. Turgenev “Otalar va bolalar”
4. D. Quronov “Badiiy asar tahlili”



## ADABIYOT DARSLARIDA NODIRA LIRIKASINI O'QITISH

Vafoqulova Go'zal Ochilovna


Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Nodira lirkasining tarbiyaviy ahamiyati va shoira ijodini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf, naqshbandiya, islom ruhi, tasavvuf ta'limi, hamnishin olima afifalar, «mukarrar», «qo'sh mukarrar»

Nodira o'z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yo'naliishiga asoslangan bir butunlik orqali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo'lidagi ruhiy dunyosini ham juda go'zal va jonli misralarda ifodalab beradi. Nodira she'rlarida islom ruhi, tasavvuf ta'limi va hayot falsafasini chuqur idrok etgan holda hayotga hamma vaqt umidbaxsh nigoh bilan qaraydi va undan yaxshilik urug'ini qidiradi. Nodira saroyda yashasa ham, o'zini ma'naviy jihatdan baxtiyor hisoblay olmas edi. Shuning uchun ham u g'azallaridan birida: «Meni sultanat masnadida ko'rib, gumon etmang ayshu farog'at bilan», deydi. Nodira olimlar, shoirlarni o'z himoyasiga olgan. Shoira o'z devonlarining «hamnishin olima afifalar, fozila hamsuhbat sharifalarning maslahatlari va tashabbuslariga ko'ra jamlangani»ni o'zbekcha devoniga yozgan so'zboshisida qayd etib o'tadi. Nodira mumtoz she'riyatning mavjud hamma janrlarida qalam tebratdi. Uning o'zbekcha va forsiycha g'azallari aruzning turli vaznlarida 5, 7, 9, 13, hatto 18 baytli hajmda yaratilgan. Shoira g'azallarining asosiy qismi 7—9 baytlidir. Nodira mumtoz adabiyot an'alarini qunt va ixlos bilan davom ettirgan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Nodira o'z g'azallarida ko'proq «mukarrar» (so'zning takrorlanib kelishi) va «qo'sh mukarrar» usullaridan foydalangan. Asarlarida talmeh, majoz, tashbeh, istiora, tazod, tadrij, tashxis, intoq kabi badiiy vositalar mahorat bilan qo'llangan. Nodira fors-tojik tilida ham go'zal, ta'sirchan she'rlar yozgan. Ular ham mazmun va badiiy mahorat jihatdan o'zbek tilidagi g'azallaridek yuksak darajada yozilgan bo'lib, shoira ijodini yana ham keng va to'laroq o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Nodira ijodiga bo'lgan qiziqish shoira hayotlik davridayoq boshlangan. Mashhur shoira Dilshod (1800—1905) Nodiraga maxsus g'azallar bag'ishlab, uni «ilm-adabi va nazm osmonining yulduzi, ushshoqlar g'azalxonasi, shakar sochuvchi bulbul» deb ta'riflaydi. Nodira g'azallariga juda ko'p shoirlar naziralar yozganlar, muxammas bog'laganlar.

**Uvaysiy, Amiriylar va Nodira ijodidagi  
o'xshashlik va farqlar  
“Venn diagrammasi” usulida**





**Uvaysiy, Amiriya va Nodira ijodidagi  
o'xshashlik va farqlar  
“Venn diagrammasi” usulida**



**“SWOT” (“KOIT”) usuli**

<b>Kuchli tomon</b>	
<b>Ojiz tomon</b>	
<b>Imkoniyatlar</b>	
<b>To'siqlar</b>	

**Nodira hayotiga doir savollar  
“6x6” usulida**

1. Qaysi shoir Nodiraniga “Jahon mamlakatlaring Bilqisi” deb ta’riflaydi?
2. Nodira asarlarining umumiy miqdori qancha?
3. Nodiraning asl ismi nima va yana qanday taxalluslarda ijod qilgan?
4. Bizgacha Nodiraning nechta devoni yetib kelgan?
5. “Firoqnama” muashsharida qaysi g’oya kuchli targ’ib qilinadi?
6. Shayx San’on timsoli Nodiraning qaysi g’azalida uchraydi?



**Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilgan shoirlardan kimlarni bilasiz?
  2. Nodiraning o‘zbek she’riyati rivojidagi o‘rni qanday?
  3. Nodiraning hayot yo‘li asarlarida qanday namoyon bo‘lgan?
  4. Nodira she’riyatida nima uchun hijron ohanglari mavjud?
- Nodira she’riyatining bosh qahramoni kim?

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. ”Adabiyot” (B.Qosimov va boshqalar) 10-sinf . Toshkent. 2004-yil.
2. A.Rafiev va boshq.O‘zbek adabiyotidan dars turlari. Met-k qo‘llanma. – T.: 1995-yil



**O‘ZBEK TILI DARSLARIDA MUSTAQIL FIKRLI O‘QUVCHILARNI  
TARBIYALASHDA QO‘LLANADIGAN USULLAR**

**Nuriddinova Dilorom Qudratovna**

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

4-maktab o‘zbek tili o‘qituvchisi

**Kaljanova Nazira Maksetbayevna**

Navoiy viloyati Tomdi tumani

2-sonli maktab internati o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu uslubiy tavsiyada o‘zbek tili darslarida qo‘llanadigan interfaol usul va o‘yinlar xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** mustaqil, ma’nodosh, teskari test, bilag‘on, interfaol...

Mustaqil fikriga ega, intiluvchan o‘quvchilarni tarbiyalash va yurtimiz kelajagini mustahkam bo‘lishiga hissa qo‘shish biz ustozlar zimmasiga ulkan mas’uliyatni yuklaydi. Bunda esa darslarda interfaol usullardan foydalanishning afzalliliklari beqiyos.

**“Bilgan bilag‘on, bilmagan topog‘on” usuli.** Bunda o‘quvchilarga darsni mustahkamlashda savol beriladi. Bilgan o‘quvchiga bilag‘on rag‘bat kartochkasi, bilmagan o‘quvchiga javob topib kelgandan keyin topog‘on o‘quvchi kortochkasi beriladi (5-6-sinflar uchun).

**“Teskari test” usuli.** Bunda o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha noto‘g‘i savollar yozilgan testlar tarqatiladi. O‘quvchilar uni to‘g‘rilashi kerak bo‘ladi. Yoki, teskari ma’lumotlar ham aytish mumkin.

A. 1,2,4,6      B.1,2,3,5,7      S.1,2,3,4,5,7,9      D.2,3,4,6,7,8

**“Mag‘zini top” usuli.** Bu usul quyidagicha tashkil etiladi.

Samimiyl kulgiga doimo tayyor,

Birinchi bo‘g‘inida ma’nosi ayyor.


Teskari o‘qilsa ikkinchi bo‘g‘in –

Hayot quvurida oquvchi sayyor. (Quvnoq va quv)

**“Ma’nodosh so‘zlar gulastasi” usuli.**

1-guruh so‘z aytadi, 2-guruh shunga ma’nodosh so‘zni topadi.

M: Bet-insonni yuzi, bet-kitobning sahifasi....






Asosan mavzuni mustahkamlashda qo'llaniladi. Bundan tashqari dars boshida, o'quvchilar diqqatini jalg etishda va psixologik iqlim yaratishda foydalanish mumkin.

1. Insonda nima chaqqon? J. Fikr
2. Qilichdan o'tkir nima? J. Til
3. Dunyoda bir narsa borki, u bo'lmasa hech kim bir-birini tanimaydi, u nima? J. Ism
4. Qaysi so'roqqa hech qachon "Ha" deb to'g'ri javob berish mumkin emas? J.
- “Uxlayapsanmi?” degan so'roqqa
5. Hayvonlardan birinig nomini ikki tomondan o'qilsa ham o'zgarmaydi. Bu qaysi hayvon? J. Kiyik
6. Sizga tegishli bo'gan nimangizni sizdan ko'ra ko'proq ishlataladi? J. Kishi nomini

**«Kimsasiz orolda» usuli.** Kimsasiz orolga tushib qoldik. Barcha fanlar bo'yicha bilimlar asosida yangi hayot, davlat jamiyat qurmoqchimiz. Xo'sh qani biologlar, ximiklar, fiziklar, maorifchilar, iqtisodchilar, siyosatchilarning rolini bilib olaylik va shu asosida davlat quraylik. Bu usul orqali biz o'quvchilarini kasblarga, yuqori sinflarda o'rgatiladigan fanlarga yo'naltirgan bo'lamiz



**“Restavratsiya” o'yini.** Bu o'yin o'quvchilarni xotirasini mustahkamlashga, diqqatini jamlashga undaydi. Bunda harflarni to'g'ri ketma-ketilikda joylashtirib yashiringan so'zlar topiladi va izohlanadi.

O'CHKAMKI\_\_\_\_\_

ASFTI\_\_\_\_\_

IMABRIK\_\_\_\_\_

Xulosa qilib aytganda darslarda innovatsion usullar muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki, o'quvchilar bilimini mustahkamlashga, mavzuni oson o'zlashtirishga yordam beradi. Har bir fan o'qituvchisi o'quvchini bilim olishga qiziqtira olishi, undagi yashirinib yotgan motivatsiyalarini ro'yobga chiqarishi, buning uchun ko'ngliga yo'l topish lozim. Avval qiziqtirish, so'ogra o'rgatish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma.

2.Internet saytlari: [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net), [www.edu.uz](http://www.edu.uz), [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-КИСМ**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович  
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзисв**

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000